

NODIR NORMATOV PROZASIDA RUHIY KECHINMALAR

Rushana Zaripova

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va
adabiyoti universiteti tayanch doktoranti.

E-pochta: rushanazaripova73@gmail.com

ORCID ID: 0009-0002-8207-2819

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14214437>

Annotatsiya. Prozada ruhiy kechinmalarni ifodalash – bu asarlarni chuqur, hissiy va psixologik jihatdan ta'sirchan qilishning muhim usulidir. Ruhiy kechinmalarni tasvirlash orqali yozuvchi nafaqat qahramonning ichki dunyosini ochib beradi, balki o'quvchiga uning ruhiy holatini, tuyg'ularini va xatti-harakatlarini tushunishga yordam beradi. Bunday tasvirlar asarlarni yanada realistik va o'qishga qiziqarli qiladi. Mazkur maqolada ijodkor Nodir Normatovning asarlarida ruhiy kechinmalarning ifodalanishida muallif mahoratining nechog'lik aks etganligi haqida atroflicha so'z boradi.

Kalit so'zlar: kechinma, psixologik portret, ichki monologlar, simvolizm.

SPIRITUAL EXPERIENCES IN NADIR NORMATOV'S PROSE

Abstract. Expressing emotional experiences in prose is an important method for making works deep, emotionally engaging, and psychologically impactful. By depicting emotional experiences, the writer not only reveals the inner world of the character but also helps the reader understand their emotional state, feelings, and actions. Such depictions make the works more realistic and interesting to read. This article discusses in detail how the skill of the author Nodir Normatov is reflected in the expression of emotional experiences in his works.

Keywords: emotional experience, psychological portrait, inner monologue, symbolism.

ДУХОВНЫЕ ОПЫТЫ В ПРОЗЕ НАДИРА НОРМАТОВА

Аннотация. Отражение духовных переживаний в прозе является важным методом для придания произведению глубины, эмоциональной и психологической выразительности. Описывая эмоциональные переживания, писатель не только раскрывает внутренний мир героя, но и помогает читателю понять его эмоциональное состояние, чувства и действия. Такие изображения делают произведение более реалистичным и интересным для чтения. В данной статье подробно рассматривается, как мастерство автора Нодира Норматова проявляется в выражении духовных переживаний в его произведениях.

Ключевые слова: переживание, психологический портрет, внутренние монологи, символизм.

Prozada ruhiy kechinmalarni ifodalash – bu asarlarni chuqur, hissiy va psixologik jihatdan ta’sirchan qilishning muhim usulidir. Ruhiy kechinmalarni tasvirlash orqali yozuvchi nafaqat qahramonning ichki dunyosini ochib beradi, balki o’quvchiga uning ruhiy holatini, tuyg’ularini va xatti-harakatlarini tushunishga yordam beradi. Bunday tasvirlar asarlarni yanada realistik va o’qishga qiziqarli qiladi. Dunyoda inson ko’nglidek qudratli narsa yo’qdir. Shu bilan birga inson ko’nglidek ojiz va nozik narsa ham yo’q. Donishmandlar ko’ngilni shishaga o’xshatib, unga darz ketsa, aslo tuzatib bo’lmasligini doim uqtirishgan. Qolaversa, shunday narsa borki, inson usiz bir daqiqa ham yashay olmaydi. Insonning hech qanday tayanchi qolmaganida ham, ko’ngil oynasida uning aksini ko’rgach, hayotga bo’lgan ishonchi ortadi, va yanada olg’a intiladi. Bu - umid! Umidi so’ngan inson-hech kim bo’lib qoladi. Juda nozik intim kechinmalar Nodir Normatovning “Ayol ovozi” hikoyasida qisqa satrlarda, yorqin va tabiiy ifodalab berilgan. Hikoyada ko’zlari operatsiya qilingan, yorug’ dunyoni qayta ko’rishni dargumon bo’lgan yigit va uning hamshirasi Malika haqida so’z boradi. So’z- juda katta qudratga ega ekanligini bilamiz. Ammo, u qachonki o’z o’rnida qo’llansa, yengib bo’lmas kuchga aylanadi. Shu o’rinda bir voqeani eslab o’tsak. Avar xalqining mashhur shoiri, Rasul Hamzatovga kasalxonadan bir bemor maktub yo’llab, shunday degan ekan: “Meni shifokorlarning muolajalaridan ko’ra, ko’proq sizning she’rlaringiz davoladi”.

Hamshira Malikaning bemorga ko’rsatgan mehribonligi natijasida yigit tezroq tuzaladi.

Albatta, Malika o’z kasbini sevadi. Uning kasbi-shu. O’z ishini bajargandayam qalb qo’rini berib bajaradi.

“... *Qiziq, ko’zlarim ko’ryapti. Ko’zlarimga faqat chinni gullar ko’rinyapti...*” Bemorning ushbu gapidan so’ng, kuz erta kelib, shaharda chinni gullar allaqachon tugab ketganiga qaramay, Malika izlab-izlab bir nemis choldan bemori uchun chinnigul keltirib berishi har qanday doridan kuchliroq ta’sir qiladi. U bemorning gaplarini shunchaki kasallikdagi bir alahsirash deb o’ylamadi. Unga e’tibor qilmay o’tib ketishi mumkin edi, lekin, yigit mutlaqo begona bo’lsa-da, dilini og’ritmaslikka harakat qildi. Bundan so’ng yigitda Malikaga nisbatan iliq munosabat uchqunlari miltiray boshladi. Borgan sari u alanga oldi. “hamshira, siz meni sevasiz-a?” deb so’radi. Hatto, shu darajaga etdiki, bemor hamshirani intizorlik bilan kutar, uning qadam tovushlaridan, nafas olishlaridan tanib, kelganidan quvonadigan bo’lib qoladi.

Yolg’on so’zlash, albatta, yaxshi ish emas. Ammo, o’rni kelganda jindakkina yolg’on kimnidir hayotini saqlab qolishi, izga tushirishi adibning ushbu hikoyasida yuksak mahorat bilan

isbotlab berilgan. Bemorning savolini hazilga olish ham mumkin-ku? Lekin, yigit hazil qiladigan holatda yoki kayfiyatda emasdi. Uning hech kimi yo‘q. U tuzalishniyam xohlamaydi. O‘ziga bitta suyanchiq topdi. Bitta bo‘lsa-da, uni tushunadi. Qalbidan nimalar kechayotganini bilib turadi.

Yigitning savoliga “Ha” deb javob berishi, uni yanada tezroq sog‘ayishiga katta sabab bo‘ladi. Chunki, yigit uni ko‘rishi kerak. Harakatlari bilan, yoqimli ovozi bilan uni o‘ziga sehirlab qo‘ygan insonni u tezroq ko‘rishga oshiqadi. Natijada, tezroq tuzaladi. Lekin, asosiy muammo keyin paydo bo‘ldi. Yaqinda yigit tuzaladi. Ko‘zlari ko‘ra boshlaydi. Hammasi yolg‘onligini bilsa nima qiladi? Hamshira buniyam ilojini topadi. U yigitning dilini og‘ritmaslikka intiladi. Yigitning ko‘zlarini ochishgan kun, hamshira yana unga chinni gullar olib keladi. Bu gal yolg‘iz emas.

Bemor yigitga gullarni hamshira Malika emas, uning olti yoshli qizchasi topshiradi. Yigit barchasiga tushunadi... Bu tasvir va uslub adib N. Normatovning o‘ziga xos ko‘rinishi.

Har bir shaxs alohida bir dunyo. Sirtidan qaraganda u “dunyo” ning “ichi” osuda. Lekin, adib ko‘zi bilan boqsak, do‘ppini yonga qo‘yib, biroz o‘ylantiradigan voqealar ham chiqib qoladi... Bir qaraganda yigit ham hamma qatori bir bemor, yoki, Malika ham oddiygina bir hamshira. Ularning boshqalardan farq qiladigan joyi yo‘q. Bu-bizning nazarimizda. Ammo, adib N. Normatov biz payqamagan, ko‘rmagan, ko‘rsak-da e‘tibor qilmay o‘tib ketadigan voqea hodisalarni yorqinroq ifodalaydi.

Hozirgi zamon o‘zbek adabiyotiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, romanchilik, qissachilik, hikoyachilik salmoqli o‘rinni egallaydi. Nodir Normatov ijodi o‘zining tabiiyligi, uslubning tushunariligi, yondashuvning o‘zgachaligi bilan ajralib turadi. Adibning bir qancha qissa va hikoyalari hayotiyli, soddaligi, tushunariligi bilan kitobxonning ko‘nglidan tezda joy oladi.

Yozuvchining qissa va hikoyalaridagi qahramonlar o‘zlarining turlicha xarakterlari, qiziqarli taqdirleri bilan o‘quvchini o‘ziga jalb etadi. “Bisot” qissasi 70-yillarning oxirlarida yaratilgan bo‘lib, uning bosh qahramoni “Qobil lashkar” laqabli kishi. Qissada adib “Qobil lashkar” hayoti, xakteri orqali uning atrofidagi turli xil insonlar taqdirini o‘zgacha usulda yoritib bergan. “Qobil lashkar”ni qishloqdoshlari yovuz, yomon, qaysar kimsa sifatida ko‘rsa-da, ammo faqatgina bir inson-qizi Barno uni juda yaxshi ko‘radi, qadrlaydi va tushunadi. U qancha yomon bo‘lmasin, inson sifatida o‘ziga xos xarakterga ega. “Qobil lashkar” umri davomida o‘zini tushina oladigan insonni izlaydi va ma’lum ma’noda uni qizi Barnoda topadi. U Barnoning kasal bo‘lishida: unga atalgan Bisotni doktor Lazginga berib yuborgani, faqat o‘zini o‘ylagani, bu esa o‘zining katta xatosi ekanini tushunib lazgindan zebigardonni qaytarib oladi. Ammo Barnoga atalgan Bisot ham beshafqat o‘lim changalidan uni qutqarib qololmaydi. Barnoning o‘limidan so‘ng Qobil lashkar o‘zini juda yolg‘iz his qiladi. Uning atrofidagi odamlar: xotini Kumush ham, o‘g‘li Omon ham qizi Barnoning o‘rnini bosolmaydi.

Shuning uchun ham Qobil lashkar ulardan voz kechadi. Qizi Barnoning xayoli, o'y-fikrlari bilan yashaydi. Adib Nodir Normatovning hikoyalarini tahlil qiladigan bo'lsak, "O'q" hikoyasida Ahmadjon, "Ayol ovozi"da Malika, "Hushtaklar"da Suyunjon, "Umrning ikki kuni" hikoyasida esa Bo'riqul kabi obrazlar gavdalantirilgan.

"Umrning ikki kuni" hikoyasida adib hikoya qahramonining xatni o'qish jarayonidagi holatini mohirona tasvirlaydi. Bo'riqul xatni o'qir ekan, yupqa lablarining beixtiyor titrashi, sokin tovush bilan yig'lashi, yupanch izlayotgan ko'zlari... bularning bari aqlga bo'ysunmaydigan muhabbat va nafratning o'zaro qorishmasi girdobida qolib ketgan inson holati. Yoki, cheksiz qudrat oldida tiz cho'kkan bukilmis iroda...

Bo'riqul buni shunday qoldirishni xohlamaydi, albatta. U bunga munosib javob qaytarishni istaydi. Unga(xotini Oysaraga) javob xatini bir amallab yozadi. Lekin, nafrat to'la maktubni umidi, ishonchi bo'lgan, lekin bir lahzada muhabbatiga noloyiq insonga aylangan Oysara o'qiyotgani ko'z oldida gavdalandi-yu, o'rnidan turib ketadi. So'ng, ayolini shodlantiruvchi majburan yozilgan maktublarni jo'natadi. Suyak sili bilan og'rigan xotiniga "Bor davolanib kel" deyishga iymangan, uning ko'ngli bilan hisoblashgan "Sen ham u-bu joylarni ko'rib kelginda" deyishi muhabbati osmon qadar cheksiz bo'lgan insongina ayta oladigan so'zlar, xolos. Xotini ko'rmasa ham, u chiqqan samolyot ko'zdan yo'qolgunga qadar qo'l silkib turishi, muhabbat nafratidan ustun kelishi faqat Bo'riqulday insonlargagina xos bo'lgan holat. Gina, alam va nafrat so'zlari bilan to'lgan maktublarini hayotda yo'qotib qo'yishdan qo'rqadigan Oysarasiga jo'natolmaganichi...? Nahotki, bu faqat achinish bo'lsa?!

Nahotki, ko'ngil uchungina, sovigan sevgining soxta ko'rinishi bo'lsa?! Qarama-qarshi girdob o'pqonida qolgan inson qiyofasini adib ushbu kichgina hikoyasida mohirona tasvirlaydi.

"Hushtaklar" hikoyasi bosh qahramoni Suyunjon holati soda va samimiy tarzda tasvirlanadi. Suyunjon opasi Sharofat bilan bir-biriga o'gay bo'lsa-da, u opasini juda ham yaxshi ko'radi. Opasini o'ziga do'st, ustoz deb biladi. Opasi hushtaklar yasashni o'rgatganida u juda ham quvonadi. Suyunjon opasi Sharofatga achinadi, u hatto shaharga qochib ketganida ham uni oqlaydi. Opasining yoniga borishga shoshiladi, ammo shaharga, opasini qidirib borganda uning uchun olgan sovg'alarini, yasagan hushtaklarini e'tiborga olmagan uchun bu holat Suyunjon juda qattiq xafa bo'ladi. Opasidan kutgan mehrni, e'tiborni ololmagan Suyunjon undan uzoqlashadi. "Hushtaklar" hikoyasidagi Suyunjon obrazi orqali Nodir Normatov har bir insonning yoshlik davridagi kechinmalarini, his-tuyg'ularini shu obrazda aks ettirgandek go'yo.

"Umrning ikki kuni" nomli qisqa hikoyasi bo'lsa-da, ammo unda bir inson hayoti qisman shu kichik hikoyada ochib berilgan.

Bu hikoyaning bosh qahramoni hisoblangan Bo‘riqul kasal xotini Oysaraning xiyonatini bilib qolganidan so‘ng o‘zini xuddi bir umr aldanib yurgandek his qiladi. Bu holatga dosh bera olmagan Bo‘riqul xotiniga bo‘lgan nafratini so‘ngan sevgisini bildirmoqchi bo‘ladi. Ammo sil kasali bilan og‘rigan Oysaraga buni bildirishga jur‘at qilolmaydi. Bo‘riqul xotinini qiynalishini, azob chekishini xohlamaydi. Ikki o‘t orasida qolgan Bo‘riqul qanday yo‘l tutishni bilmay qiynaladi. Hikoya uchun keltirilgan “Ko‘ngil uchun sevgin hech bo‘lmaganda”(M.Lermontov) epigrafi ham xuddi Bo‘riqul qalbidan yangragan nola kabi jaranglaydi. Chora topalmay qiynalgan Bo‘riqul tuyg‘ularini vaqt hukmiga tashlashni lozim topadi. Har bir hikoya qahramonining hayoti o‘quvchini befarq qoldirmaydi. Uni qiziqtiradi, voqealari izidan borishga undaydi. Nodir Normatov qissalari va hikoyalarida surxon hayoti, surxon havosi ufurib turadi. Bu asarlarni o‘qigan kitobxon shu olamga tushib qolgandek, shu insonlar kechinmalarini his qilgandek bo‘ladi.

REFERENCES

1. Adabiyot va zamon. Maqolalar, adabiy o‘ylar, suhbatlar. – Toshkent: Adabiyot va san’at nashriyoti, 1981.
2. Adabiyot nazariyasi. 2 jildlik. Adabiy asar. 1-jild. – Toshkent: Fan, 1978.
3. Adabiyot nazariyasi. 2 jildlik. Adabiy-tarixiy jarayon. 2-jild.– Toshkent: Fan, 1979.
4. Normatov U. Umidbaxsh tamoyillar. – Toshkent: Ma’naviyat, 2000.
5. Normatov U. Qahhorni anglash mashaqqati. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy universiteti, 2000.
6. N. Normatov, A.Ulug‘ov.-// Biz izlayotgan hikmatlar// - O'zbekiston tarixi, adabiyoti va madaniyati// 24-dekabr, 2015-y.
7. N.Normatov. “Bisot”. Qissalar, hikoyalar. T.: -“Sharq” 2012.